



ELEKTRON HUKUMATDA OCHIQ MA'LUMOTLAR VA ULARNI BOSHQARISH

Inomjonov Omadbek Rahmatullo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti
Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishi 2- bosqich talabasi e-mail:

inomjonovomadbek147@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17646359>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 19-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Elektron hukumat , Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi, onlayn xizmatlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanishi, uning asosiy yo'nalishlari va joriy etilgan loyihalar tahlil qilingan. Maqolada elektron hukumatning mohiyati, afzalliklari, tuzilmasi va bosqichlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilgan "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali", "Ochiq ma'lumotlar portali" va boshqa elektron tizimlar faoliyati ko'rsatilgan. Maqolada 2022-yilgi statistik ma'lumotlar asosida davlat xizmatlari markazlari faoliyati tahlil qilingan va xalqaro reytinglarda O'zbekistonning erishgan muvaffaqiyatlari yoritilgan. Maqolada elektron hukumat sohasida O'zbekistonning amaliy tajribasi va erishgan yutuqlari tahlil qilinadi.

XXI asr axboratlashuv va globallashuv davrida yashayotgan deyarli har bir inson zamonaviy gadjetlarga ega. Ular orqali masofadan turib, davlat va jamiyat hayotiga oid eng muhim masalalarda onlayn ishtirok etishmoqda, ayniqsa vaqt va xarajatlarini tejab qolishmoqda, bu esa o'z navbatida samaradorlikka xizmat qilmoqda. Bu tendensiya yil sayin oshib borishi tabiiy jarayon, chunki davlat o'z fuqarolarining oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirishi va o'zi taklif qilayotgan xizmatlarni takomillashtirib borishi shart. "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida ish olib borilayotgan mamlakatimizda aholining huquq ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan , davlat boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, islohotlar samaradorligini oshirish va aholi manfaatlarini yanada yaxshi ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan , "Elektron hukumat" tushunchasi bugun kundalik hayotimizda muhim o'rin egallab bormoqda. Elektron hukumat an'anaviy hukumat tushunchasidan farq qiladi, chunki u mamlakat miqyosida ma'muriy tartib-taomillarni avtomatlashtirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirishga zamin yaratadi. Ushbu tizim davlat va fuqarolar, davlat va biznes subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni raqamli shaklda tashkil etishga qaratilgan. Maqolada hozirgi kunda

mamlakatimizda deyarli har bir davlat organlarining elektron portalli faoliyat olib bormoqda . Biz bu maqolada Ochiq ma'lumotlar portali; my.3gov.uz ; lex.uz ; O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ; O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali ; shu kabi portallarini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatda kechayotgan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatib islohotlar samaradorligini oshishda , aholi manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda va fuqarolarga yangidan yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda . Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib " Elektron hukumat" atamasi kundalik hayotimizda chuqur o'rin egallamoqda . Garchi davlatimiz aholisining hammasi ham bu haqda to'liq ma'lumotga ega bo'lmasada , vaqt o'tishi bilan fuqarolarimiz ushbu tizim bo'yicha ancha ma'lumotlarga ega bo'ladi . Chunki bu tizim jamiyat hayotining butun jabhasini qamrab olishini bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rishimiz mumkin . Elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek , idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi. [1] Elektron hukumatda davlat xizmatlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali fuqarolar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarni soddalashtiruvchi tizim. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida davlat organlari faoliyatini shaffof va samarali tashkil etishga xizmat qiladi . Mazkur tizim orqali xizmatlar tezlashashi , byurokratik jarayonlar kamayishi va davlat boshqaruvi ochiqlikni taminlashiga erishamiz.

Elektron hukumat quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- G2C (Government to Citizen) – fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar (masalan, pasport olish, soliqlarni to'lash);
- G2B (Government to Business) – biznes subyektlariga xizmatlar (masalan, litsenziya ruxsatnomalari);
- G2G (Government to Government) – davlat idoralari o'rtasidagi o'zaro axborot almashuvi;
- G2E (Government to Employee) – davlat xizmatchilari uchun ichki xizmatlar.

O'zbekistonda elektron hukumat

O'zbekistonda 2013-yildan boshlab elektron hukumat konsepsiyasi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2020-yilda esa "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda my.gov.uz portali orqali 300 dan ortiq davlat xizmatlari onlayn taqdim etiladi. BMTning EGD 2024-yilgi reytingida O'zbekiston 63-o'rinni egallagan.

Aytish kerakki, davlat boshqaruvi tizimiga "yagona darcha" tamoyilini joriy qilish ham ustuvor vazifalardan sanaladi. 2013 yili mamlakatimizda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ishga tushirildi. Joriy yilning mart oyiga kelib esa ushbu portalda 308 ta elektron xizmat joriy etildi. Bunda xizmatlar axborot (oflayn), yarimavtomat, avtomatlashtirilgan va interaktiv ko'rinishlarda taqdim qilinayapti.. Portal Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, ID.UZ identifikatsiya tizimi, O'zbekiston Respublikasi Xalq banki axborot tizimlari hamda resurslariga, normativ-huquqiy hujjatlar ta'sirini baholash tizimi portaliga hamda "Tadbirkorlik" tizimiga ulangan. Hozirgi kunda "yagona darcha" axborot tizimi, yagona identifikatsiyalash axborot tizimiga integratsiyalash bo'yicha ishlar olib borilyapti . Keyinchalik

,2015-yil 17 martda esa "Onlayn ma'lumotlar portali" (www.data.egov.uz) foydalanishga topshirildi. Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida "Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi" ni alohida ko'rinishda ishga tushirish edi, ya'ni bu maqola tahlil qilinadigan - (www.regulation.Gov.Uz) - mazkur tizim 2015-yil 1-yanvardan, ishga tushirilgan bo'lib, dastlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) ning alohida bo'limida aholi e'tiboriga havola etildi.

Materiallar va usullar

"Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" (www.my.gov.uz). Davlat organlarining xizmatlari onlayn xizmat ko'rsatishi uchun yaratilgan. Xalqimiz bu portal orqali bema'lol uyda o'tirgan holda portalda mavjud bo'lgan xizmatlardan to'laqonli foydalanishlari mumkin bo'ladi. Keyingi portalimiz "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali" (Regulation.Gov.Uz) Davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qonunchilik hujjatlari qabul qilinishidan oldin aholi muhokamasiga qo'yiladi. Fuqarolar esa, tizimdan foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tib, o'z fikr va takliflarini qoldirishlari mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi lex.uz portaliga joylashtiriladi. Joylashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Biz lex.uz portali uchun ro'yxatdan o'tishimiz shart emas, hohlagan odam hohlagan payti kirib bema'lol o'zi uchun kerak bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni topishlari mumkin bo'ladi.

Interfeys. Interfeys o'zi nima? degan savolga javob beradigan bo'lsak, foydalanuvchining qurilma yoki dastur bilan o'zaro aloqasi tizimi interfeys deb ataladi. My.gov.uz portali orqali jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat xizmatlaridan onlayn tarzda foydalanishlari mumkin. Biz portal orqali xizmat ko'rsatish jarayonlari (ariza yuborish, hujjat topshirish, to'lovlar) ancha soddalashtirilgan. my.gov.uz ga kirish uchun foydalanuvchilar elektron indetifikatsiya (e-imzo, mobil ilova, ERI) orqali tizimga kirishlari mumkin. Foydalanuvchilarning maqomi xizmat so'rovlari tarixi va ariza holati ko'rinib turadi, to'lovlar va hujjatlarni yuborishimiz, shuningdek, biz statistika va qo'llab-quvvatlashlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Lex.uz portalidan yuqorida ta'kidlaganimizdek istalgan odam foydalanishi mumkin. lex.uz ga kirganimizda qidiruv paneli chiqadi. Biz u yerda sarlovha, hujjatlarni raqami, sana kabi mezonlar bo'yicha hujjatlarni qidirib topsak bo'ladi. Shuningdek, portalda til va shrift sozlamalari ham juda qulay (o'zbek, rus, ingliz) tillarida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari kabi turkumlari bo'yicha ham saralashimiz mumkin. "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali" (Regulation.Gov.Uz) U barcha uchun sodd va qulay ko'rinishga ega. Bir so'z bilan aytganda, hamma narsa bilan ta'minlagan. Chunki 3 ta til (O'zbek, Rus, Ingliz), maxsus imkoniyatlar, yozuv shriftlarining o'lchovi va ko'rinish fonlari, oq-qora va qorong'ulik-tungi rejim ham mavjud. Biz muhokama qilayotgan portalga dastlab tashrif buyurganimizda nimalarga duch kelamiz? Demak, portalda 21 ta soha (yo'nalish) bo'yicha barcha NHH larning loyihalari muhokama uchun joylangan ularning qanchasi uchun muhokama yakunlangan yoki davom etayotganini bilib olishimiz mumkin, hamda davom etayotganiga tashrif buyurib, o'z takliflarimizni bildirishimiz mumkin.

Davlat organlari harakati:

Har qanday mamlakatda milliy ma'lumotlar bazasi hamda elektron reyestrlar elektron hukumat faoliyatining asosiy jihatlari hisoblanadi. Bu mexanizmlar jismoniy va yuridik shaxslar, avtomobil transporti, ko'chmas mulk, davlat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni

tizimlashtirish imkonini beradi. Mamlakatimizda milliy axborot tizimlarini rivojlantirish doirasida oltita ma'lumot bazasi hamda 12 ta axborot tizimlari majmuyi yaratilmoqda. Masalan: "Soliq" axborot tizimlari majmuyi 10 ta dasturiy mahsulot va 31 avtomatlashtirilgan tizimdan iborat. Uning ishga tushirilishi natijasida Davlat soliq qo'mitasining 31 xizmatini elektronlashtirish mumkin bo'ladi.

Bugun O'zbekistonda xo'jalik subyektlarining barcha turdagi soliq va statistika hisobotlari elektron shaklda topshirilmoqda, tovarlarni deklaratsiyalash hamda eksport-import shartnomalarini ro'yxatga olish ham elektron shaklga o'tkazilgan.

Sohadagi yana bir muhim yangilik. 2015- yilda Ochiq ma'lumotlar portali ishga tushirildi. Dastlabki bosqichda unda 8 ta tashkilotdan 80 turdagi ma'lumot joylashtirilgan bo'lsa, bugungi kunda mazkur portalda 120 ta tashkilotning 2216 xildagi axboroti o'rin olgan. Bu axborotlar iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va boshqa dolzarb sohalarga taalluqlidir.

Biznes uchun qulay :

Elektron hukumatni taraqqiy toptirishga qaratilayotgan e'tibor yurtimizda ishbiarmonlik muhitining sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishida o'z ifodasini topmoqda. Misol uchun, Jahon bankining "Doing business" reytingida so'nggi besh yilda O'zbekistonning umumiy reytingi biznes yuritish bo'yicha 2020 - yillik hisobotida O'zbekiston 69-pog'onaga ko'tarildi . Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida, jumladan, belgilangan tartib-taomillarni buzganlik uchun shikoyat bildirish, tadbirkorni murojaat qiluvchining mobil telefon raqami orqali identifikatsiya qilish maqsadida ro'yxatga olish, muhandislik-kommunikatsiya texnologiyalariga ulanish uchun ariza berish, tadbirkorlik sub'yektlariga o'zimizda ishlab chiqarilgan avtomobil transporti vositalarini xarid etish uchun ariza berish, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni ro'yxatga olish maqsadida arizani rasmiylashtirish singari xizmatlar joriy qilingan. 2014 - yildan boshlab eksport va import kontraktlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida bepul ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Banklar, soliq hamda bojxona organlari Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali xo'jalik sub'yektlarining tashqi savdo faoliyati monitoringini olib borayapti. Davlat bojxona qo'mitasi saytida (www.customs.uz) elektron yuk bojxona deklaratsiyalari qabul qilinmoqda. 2015 - yilda davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali ishga tushirildi va elektron savdo shakli amaliyotga tatbiq etildi. Yana bir diqqatga sazovor jihati, elektron ishtirok etish reytingida O'zbekiston BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo'yicha reytingida 6 pog'ona yuqorilab, 193 davlat orasida 63-o'rinni egalladi. Uning elektron hukumatning rivojlanish indeksi 0,79 ni, past va o'rta daromadli mamlakatlar orasidagi ko'rsatkichi esa 0,76 ni tashkil etdi. Ushbu indeksning o'sish sur'atlari bo'yicha respublikamiz Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida ikkinchi o'rinni, Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida esa to'rtinchi pog'onani egalladi. BMT ekspertlari O'zbekistonda uy-joy mulkdorlari shirkatlari portali (e-kommunal.uz), ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz) va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali (regulation.gov.uz) ishga tushirilganiga e'tibor qaratishgan. Ularning fikricha, bu sa'y-harakatlar davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash hamda xalq bilan muloqot amaliy mexanizmlarini joriy etish borasida ijobiy qadam hisoblanadi.

Xorijiy tajriba :

Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha yetakchi 10 mamlakatlarini ko'rib chiqamiz . 2022-yilgi sharhda qayd etilishicha EGDI (Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi) normallashtirilgan nisbiy indeks bo'lib, mamlakatlarning

O'rni Davlatlar Hizmatlar qamrovi

O'rni	Davlatlar	Hizmatlar qamrovi
1	Daniya	97,17 %
2	Finlandiya	95,33 %
3	Janubiy Koreya	95,29 %
4	Yangi Zelandiya	94,32 %
5	Islandiya	94,10 %
6	Shvetsiya	94,10 %
7	Avstraliya	94,05 %
8	Estoniya	93,93 %
9	Niderlandiya	93,84 %
10	AQSH	91,51 %
63	O'zbekiston	79,99 ²

EGDI ko'rsatkichlaridagi uncha katta bo'lmagan farqlar EGDI ko'rsatkichi pastroq mamlakat tadqiqot qamrab olgan so'nggi ikki yilda yomon natija qayd etganini anglatmaydi. Xuddi shuningdek EGDI ko'rsatkichi nisbatan yaxshiroq mamlakat (ayniqsa, reyting yetakchilari orasida) boshqalardan ancha o'zib ketgan emas. Jahondagi eng yaxshi 10 ta elektron hukumat guruhi mamlakatlardan tashkil topdi. Ushbu davlatlar EGDI bo'yicha yuqori o'rinlarni egallagan, chunki ular raqamli infratuzilmani rivojlantirib, barcha davlat xizmatlarini onlayn platformalar orqali qulay va shaffof tarzda taqdim etib kelmoqda. Shuningdek, aholining raqamli savodxonligi yuqori va ochiq ma'lumot siyosati samarali yo'lga qo'yilgan. Natijada, boshqaruv tizimi sezilarli darajada tezkor, fuqarolar uchun qulay va ishonchli shaklga aylangan. E'tiborli jihati shundaki, 2022-yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston mazkur reytingda 0,7265 qiymat bilan 69-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024-yilda 0,7999 indeks hisobiga 6 pog'onaga yuqorilab, 63-o'ringa chiqdi. O'z navbatida, ilk marotaba O'zbekiston baland elektron hukumatni rivojlantirish indeksi guruhidan (High EGDI) dan juda baland (Very High EGDI) guruhiga qo'shildi.

Ochiq platforma :

Ochiq platformada quyidagicha yangi imkoniyatlar yaratilgan: Korrupsiyaga qarshi mustaqil ekspertiza – savolnoma shaklida tashkil etilgan ushbu ekspertiza mazmuniga ko'ra muhokamaga chiqarilgan har bir NHH loyihani korrupsiyani oldini olishga yoki sharoit yaratishiga holatlarga ta'siri yuzasidan o'z fikr-mulohazalaringizni qoldirishingiz mumkin. Portalni rivojlantirish bo'yicha takliflar – ushbu so'rovnomada yordamida portalda yaratilgan texnik imkoniyatlarni takomillashtirish, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish yuzasidan o'z taklif va e'tirozlaringizni taqdim etishingiz mumkin. Ushbu so'rovnomada natijalari portal ma'muriyatiga kelib tushadi va har bir javob sinchiklab o'rganib chiqiladi. Umumiy so'rovnomada - muhokamaga chiqarilgan har bir NHH loyihasining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi, havolaki va bir-biriga zid normalarni mavjudligi, hamda loyiha matnining oddiy fuqarolarga tushunarliklik darajasi yuzasidan o'z fikr mulohazalaringizni qoldirishingiz mumkin. My.gov.uz portali fuqarolar, tadbirkorlar va tashkilotlar uchun davlat xizmatlarini masofadan turib olish

imkonini beradi. Portal orqali turli ariza, so'rov va murojaatlarni onlayn tarzda yuborish, ularning holatini kuzatish, zarur ma'lumotlarni olish mumkin. Shuningdek, foydalanuvchilar portalni rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha taklif va e'tirozlarini maxsus so'rovnoma orqali yuborishlari mumkin. Har bir fikr portal ma'muriyati tomonidan sinchiklab o'rganiladi va amaliy takomillashtirish jarayonida inobatga olinadi.

Statistik ma'lumotlar :

Davlat muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqidagi statistik ma'lumotlar bosh boshqaruvchi tashkilotda yig'iladi, fuqarolar tomonidan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini baholash bo'yicha statistik ma'lumotlar esa tizimga bevosita integratsiya qilingan qurilma yordamida to'planadi. Biz 2022- yil I chorak statistikasini ko'rib chiqamiz :

Hududlar		DXM orqali yuborilgan arizalar statistikasi			
		Jami	Aholi	Bajarilgan	Rad etilgan
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	508379	19706	61850	38091
2	Andijon	686781	612159	74622	51 896
3	Jizzax	333406	271681	74896	32 447
4	Qashqadaryo	621811	553800	60581	55 556
5	Navoiy	287875	250796	34484	21924
6	Namangan	620736	544835	75901	35082
7	Samarqand	813154	662267	150887	75973
8	Sirdaryo	234988	211186	23802	20045
9	Surxondaryo	478619	447344	31237	41354
10	Buxaro	505757	430861	68011	36569
11	Toshkent.v	873477	730376	143101	99680
12	Farg'ona	959749	886516	73230	58997
13	Xorazm	556431	484032	72399	52584
14	Toshkent.sh	1066034	768.600	297434	109766
Jami		8547194	7300982	1242415	729964 ³

Statistik ma'lumotlar aholi davlat xizmatlarini olish uchun ko'pincha onlayn shaklda emas, balki oflayn tarzda bevosita murojaat qilganini ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababini aholida Internetdan foydalanish ko'nikmasining yo'qligi va internet bilan bog'liq muammolar, deb taxmin qilish mumkin. Ushbu holatni rad etilgan arizalar nisbati tasdiqlay oladi, ya'ni kamchiliklar va yomon realizatsiya qilinganlik tufayli rad etish nisbati juda past darajani ko'rsatmoqda. Murojaatlarning eng ko'pi elektron imzo olish uchun yuborilgan, keyingi eng ko'p murojaat qilingan xizmat – "Bolani davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish" bo'yicha arizalar bo'ldi.

Umuman olganda, elektron hukumatning shakllanishi ko'p jihatdan foydalidir. Undan keladigan foydalar sirasiga manfaatdor tomonlarga axborot, bilim va xizmatlarni yetkazib berishni oson va arzonlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, davlat muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish, xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash va fuqarolarning qoniqish

darajasini oshirish, korrupsiyaning oldini olish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, hayot sifatini oshirish kabilarni kiritish mumkin. Bularning barchasi hukumatlar va fuqarolar o'rtasida ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa:

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron hukumat tizimi orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari davlat idoralarga murojaat qilishda ancha osonlik va qulaylikka erishgan. Shuningdek, bu tizim korrupsiyani kamaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda davlat boshqaruvi jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda elektron hukumat tizimi nafaqat davlat xizmatlarini soddalashtirish, balki ochiq ma'lumotlar siyosatini rivojlantirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish va zamonaviy, shaffof jamiyat barpo etishga xizmat qiluvchi ishonchli platformaga aylanmoqda.

Foydalanga adabiyotlar:

1. <https://e-gov.uz/>
2. <https://data.egov.uz/>
3. <https://kun.uz/89302078?q=%2Fuz%2F89302078>
4. <https://my.gov.uz/uz>
5. https://toshkent.adliya.uz/uz/ochiq-malumatlar/?ELEMENT_ID=79383
6. <https://lex.uz/docs/-2833860>

INNOVATIVE
ACADEMY